

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘konlardagi narxlar inobatga olinmagan**)).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2021- yil 6- oktabr kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
45 000 so'mdan 68 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (45 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Andijon shahri "Yangi bozor dehqon bozori", Buxoro shahri "Buxoro markaziy dehqon bozori", Jizzax shahrining "Jizzax markaziy dehqon bozori", Samarqand shahri "Siyob dehqon bozori", Guliston shahrining "Guliston dehqon bozori", Yangiyo'l shahrining "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori", Urganch shahrining "Urganch markaziy dehqon bozori", Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori", "Farhod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 68 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorlarda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 51 000 – 60 000 so'm oralig'ida sotilmoqda.



Qo'y go'shti
52 000 so'mdan 80 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi (52 000 so'm) kuzatuv natijasiga ko'ra, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan rastalarda ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Qo‘yliq dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (xususiy tadbirkorlar rastalarida 80 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, ushbu bozorlarda qo‘y go‘shini minimal 52 000 – 65 000 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Kartoshka

2 500 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Navoiy shahrining “Saxovat” bozori, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Farg‘ona shahrining “Markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Qo‘yliq dehqon bozori”da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 500 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (6 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozorda arzonlashtirilgan rastada sotilayotgan kartoshkani minimal 3 000 so‘mdan ham xarid qilish mumkin.

Piyoz

1 000 so‘mdan 3 500 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Termiz shahrining “Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”da (1 000 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (3 500 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda piyozni minimal 1 500 – 2 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

2 000 so‘mdan 9 000 so‘mgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Termiz shahrining “Yashil dunyo markaziy oziq-ovqat bozori” va Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Qo‘yliq dehqon bozori”da (2 000 so‘m) qayd etilgan. Shuningdek, mazkur bozorlarda sabzini maksimal 3 000 – 7 000 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Sabzi mahsulotining maksimal narxi Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da 9 000 so‘m darajasida qayd etilgan. Ushbu bozorda sabzining minimal narxi 4 000 so‘mni tashkil etdi.

Tuxum

6 000 so‘mdan 14 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Qo‘yliq dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (6 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 14 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 7 000 – 8 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

5 000 so‘mdan 17 500 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Termiz shahrining “Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”da (“Nukus-2” va boshqa mahalliy navli guruchlar 5 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”da 17 500 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorda guruchning minimal narxi 6 500 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i

14 000 so‘mdan 24 000 so‘mgacha (litrl)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 14 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozordagi xususiy tadbirkorlar rastalarida paxta yog‘ini 17 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” hamda “Mirobod dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 24 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda kungaboqar yog‘ini minimal 16 500 – 18 000 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Shakar

7 500 so‘mdan 9 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da arzonlashtirilgan rastalarda (7 500 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (9 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda shakarni minimal 7 800 – 8 500 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***

2021- yil 6-oktabr holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyozi	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 l.)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	45000	54000	3300	1800	2000	9000	5000	16500	8100
		max	67000	62000	5000	2500	3500	11000	13500	19500	8800
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	55000	70000	3300	1800	4500	8000	7000	14500	8000
		max	68000	78000	4000	3000	6300	11000	16000	20000	8500
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	60000	57000	3500	1500	3000	9000	6500	16000	8500
		max	68000	65000	5000	3000	4500	13000	15000	23000	9000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	3000	1500	3000	8000	5000	14000	8000
		max	68000	70000	4000	2500	5000	11000	13000	22000	8500
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	67000	3500	1400	3400	7000	6000	16000	8300
		max	67000	75000	4000	2000	5000	8600	13000	21000	9000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	54000	58000	2500	1600	3300	8000	8000	16500	8500
		max	66000	64000	4000	2200	4000	10500	15000	23000	9000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	48000	70000	2500	1200	3000	8000	6500	15000	8500
		max	58000	72000	4200	2200	5000	10000	17500	20000	9000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	60000	70000	3500	1500	5000	8000	7000	16000	8000
		max	68000	78000	5000	2000	7000	12000	13000	23000	8800
9.	Termiz shahar "Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	60000	70000	3000	1000	2000	9000	5000	15000	8000
		max	65000	75000	4500	2000	3000	10000	15000	18000	8500
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	55000	65000	3500	1400	3000	6000	6000	15600	8500
		max	68000	75000	5000	2000	7000	10000	14000	20000	9000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	60000	60000	3300	1500	2500	10000	7000	16000	9000
		max	65000	80000	5000	2500	7000	13000	16000	23000	9000
12.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	55000	62000	3000	1600	2500	7000	7000	18000	8000
		max	68000	75000	4800	2500	5000	11000	16000	23000	8500
13.	Farg'ona shahar “Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	55000	65000	2500	1500	3000	8000	7000	15000	8000
		max	67000	72000	4000	2500	7500	11000	15000	20000	8500
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	55000	70000	3500	2000	2500	7000	6000	17000	8000
		max	68000	75000	5000	3000	4000	10000	13000	21000	8500
15.	Toshkent shahar “Eski jo'va dehqon bozori”	min	53000	58000	3500	1500	2000	7000	6000	16000	7800
		max	60000	75000	5500	2500	5000	14000	14000	23000	8000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	60000	65000	3500	1500	6000	9000	7000	16000	7500
		max	68000	80000	4500	3500	8500	13000	15000	24000	8000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	51000	52000	3000	2000	4000	8000	5700	14500	7800
		max	68000	80000	6000	3500	8000	14000	17000	22000	9000
18.	Toshkent shahar “Qo'yliq dehqon bozori”	min	53000	58000	2500	1500	2000	6000	6000	16000	7800
		max	68000	80000	5000	2500	7000	12000	17000	23000	8500
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	55000	60000	2800	1500	4000	9000	7000	14500	7800
		max	68000	80000	5000	2500	9000	13000	17000	24000	9000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.